



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI
BUYURUQ**

2022-yil “26” iyul

147-sonli

Toshkent sh.

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2022-yil
14-iyundagi PF-154-sonli
Farmoni ijrosini
ta'minlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-154-sonli Farmoni ijrosini, shuningdek, vazirlik va tizim tashkilotlari faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligini ta'minlash, Ochiqlik indeksini hisoblashda yaxshi natijalar qayd etilishiga erishish maqsadida

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi PF-154-son Farmoni ***rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.***

2. Mazkur Farmon bilan:

2022-yil 1-avgustdan boshlab Davlat budgeti, shuningdek, xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalar, shu jumladan istiqbolli investitsiya va infratuzilma loyihalari bo'yicha ularning asosiy texnik ko'rsatkichlari va boshqa loyiha hujjatlari to'g'risidagi ma'lumotlar Ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxatiga kiritilishi;

davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari, shuningdek, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari hamda davlat unitar korxonalarida ochiqlik bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini baholashga qaratilgan Ochiqlik indeksi joriy etilishi;

Ochiqlik indeksi 8 ta indikator asosida “0” balldan “100” ballgacha baholanib, davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati samaradorligi “**yashil**”, “**sariq**” va “**qizil**” toifalarga ajratilishi;

baholash har yili oldingi yilning 1-yanvaridan 31-dekabriga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga qamrab olishi;

2022-yilda Ochiqlik indeksi 1-iyuldan boshlab joriy yilning ikkinchi yarmi qamrab olingan davr uchun baholanishi;

Ochiqlik indeksini hisoblash natijalari har yili 1-aprelga qadar Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan “eanticor.uz” elektron platformasi va ommaviy axborot vositalarida e’lon qilib borilishi;

baholash natijalari e’lon qilingach, bir oy muddatda faoliyati “qizil” toifada baholangan davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining ochiqlik sohasida yo’l qo‘ygan kamchiliklari va ularni bartaraf etish bo‘yicha rejalashtirgan chora-tadbirlari yuzasidan Hukumat tizimidagi davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining axboroti Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlislarida eshitilishi;

Hukumat tizimiga kirmaydigan tashkilotlar rahbarlarining axboroti Oliy Majlis Senati majlislarida eshitilishi hamda natijasiga ko‘ra tegishli choralar belgilanishi *ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.*

3. Suv xo‘jaligi vazirligi tizimida ochiqlikn ni ta’minlash sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligiga mas’ul Ishchi guruhi tarkibi *Ilovaga muvofiq tasdiqlansin.*

4. *Ishchi guruhi (A.Nazarov):*

har chorakda vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlar tomonidan ochiqlikn ni ta’minlash sohasida amalga oshirilgan ishlar, rejalashtirilgan loyihamalar va chora-tadbirlar ijrosini muhokama qilib borish;

tahlillar va keng jamoatchilik fikrini o‘rganish asosida ochiq e’lon qilinishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar ko‘lamini kengaytirish, sifatini oshirish va dolzarbligini ta’minlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish chora-tadbirlarini belgilash;

vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarning ochiqlikn ni ta’minlash borasidagi yangi loyihamalarni ko‘rib chiqish va ularni amalga oshirish yuzasidan amaliy yordam ko‘rsatish;

vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarning o‘z rasmiy veb-saytida joylashtirilishi majburiy bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlarning namunaviy shakllarini ishlab chiqish;

Ochiq ma’lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlar belgilangan muddatlarda rasmiy veb-saytida va Ochiq ma’lumotlar portalida joylashtirilishini ta’minlasin.

5. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vaziri, viloyatlar irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshliqlariga:

bir hafta muddatda hududiy tarkibiy tuzilmalarda ochiqlikn ni ta’minlashga doir normativ-huquqiy hujjatlarning ijro etilishi xatlovdan o‘tkazilsin;

bir oy muddatda hududiy tarkibiy tuzilmalarning rasmiy veb-sayti tashkil etilib, unda ochiq ma’lumotlar uchun alohida bo‘lim ochilsin;

Ochiq ma’lumotlar bo‘limiga ochiq ma’lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlar belgilangan muddatlarda joylashtirlishi va yangilab borilishi ta’minlansin.

6. Farmon talablaridan kelib chiqib, vazirlik va uning tizim tashkilotlari faoliyati “*yashil*” toifada baholanadigan bo‘lsa, ochiqlikn ni ta’minlashga mas’ul bo‘lgan xodimlar Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tavsiyasiga asosan budjet mablag‘lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan bir yilda bir marta bir oylik lavozim maoshining 50 foizi miqdorida rag‘batlantirilishiga ruxsat berilsin.

7. Vazirlik va uning tizim tashkilotlari faoliyati “qizil” toifada baholanadigan bo‘lsa, ochiqlikni ta’minlashga mas’ul bo‘lgan xodimlar olti oy davomida rag‘batlantirish va mukofot pullaridan mahrum qilinishi barobarida ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishgacha bo‘lgan choralar ko‘rilishi e’tiborga olinsin.

8. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir

Sh.Xamrayev



Suv xo‘jaligi vazirligining
2022-yil 15-iyuldagি
147-sonli buyrug‘iga
Ilova

**Suv xo‘jaligi vazirligi tizimida ochiqlikni ta’minlash sohasida amalga
oshirilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligiga mas’ul
Ishchi guruh
TARKIBI**

- | | |
|-------------------|---|
| 1. A.Nazarov | - Vazirning birinchi o‘rnbosari, Ishchi guruh rahbari |
| 2. A.Mirzayev | - Vazir o‘rnbosari, Ishchi guruh rahbari o‘rnbosari |
| 3 R.Qarshiyev | - Vazir o‘rnbosari |
| 4 D.Xodjjaxmedov | - Vazir o‘rnbosari |
| 5 X.Umirzakov | - Ichki audit va komplayens nazorat boshqarmasi
boshlig‘i |
| 6 R.Sharopov | - Yuridik boshqarma boshlig‘i |
| 7 Sh.Suyunov | - Axborot xizmati boshlig‘i |
| 8 S.Alimardanov | - Moliyalashtirish, buxgalteriya hisobi va hisoboti
boshqarmasi boshlig‘i |
| 9 X.Lapasov | - Kadrlar va ta’lim muassasalari boshqarmasi boshlig‘i |
| 10 D.Ro‘zimurodov | - Davlat-xususiy sheriklik va raqamli texnologiyalarni
rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i o‘rnbosari |
| 11 O.Norbekov | - Axborot xizmati bosh mutaxassis |

Izoh: Mazkur topshiriqning ijrosini ta’minlashda Ishchi guruh tarkibidan
kimningdir lavozimi o‘zgarganda yoki ishdan ozod qilinsa, lavozim bo‘yicha
ularning o‘rniga tayinlangan shaxs ijrosini ta’minlaydi.